

**LINGVOKULTUROLOGIYA VA FRAZEOLOGIYA MASALASI (O'ZBEK VA
NEMIS TILLARI MISOLIDA)**

YUSUPOVA GULXUMOR

*Urganch davlat universiteti,
Tarjima nazariyasi va amaliyot kafedrasi o'qituvchisi,
gulhumor.yusupova94@mail.ru*

SOBIROVA SHOHSANAM

Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8080511>

Annotatsiya. Hozirgi zamonda frazeologizmlarni lingvokulturologiyada o'r ganish dolzarb va munozarali masalalardan hisoblanadi. Frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash, farq qiluvchi, o'xshash tomonlarini tahlil qilishda birinchi navbatda ularning kelib chiqishini o'r ganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologizmlarning aksariyati nemis tilida ham, o'zbek tilida ham xalq tomonidan yaratilagan bo'lib ularning muallifi aniq emas va ularning kelib chiqish manbalarini ko'rsatish ancha mushkul. Mazkur maqolada o'zbek va nemis xalqlari frazeologizmlari lingvokultuologik jihatdan tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar. Frazeologiya, lingvokulturologiya, madaniyat, urf-odat, maqol.

Annotation. Nowadays, the study of phraseologisms in linguistic and cultural studies is one of the topical and controversial issues. In determining the national-cultural features of phraseology, analyzing their differences and similarities, it is important to study their origin first. Most of the phraseologisms were created by people both in German and Uzbek, their author is not clear and it is very difficult to show their sources of origin. In this article, the phraseologisms of the Uzbek and German peoples are analyzed from a linguo-cultural point of view.

Keywords. Phraseology, linguoculturology, culture, tradition, proverb.

Аннотация. На сегодняшний день изучение фразеологизмов в лингвокультурологии является одним из актуальных и дискуссионных вопросов. При определении национально-культурных особенностей фразеологизмов, анализе их различий и сходств важно прежде всего изучить их происхождение. Большинство фразеологизмов создано людьми как на немецком, так и на узбекском языке, их автор не ясен и очень сложно показать источники их происхождения. В данной статье фразеологизмы узбекского и немецкого народов анализируются с лингвокультурологической точки зрения.

Ключевые слова. Фразеология, лингвокультурология, культура, традиция, пословица.

KIRISH

Frazeologizmlar murakkab til hodisasi sifatida tilda so'z (leksik-semantik birlik) va so'z birikmalari (sintaktik birlik) orasida turuvchi birlik hisoblanadi'. Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan frazeologizmlar, so'zlar kabi tilning lug'aviy birligidir. Frazeologizmlar birdan ortiq so'zdan tashkil topishi bilan so'z birikmasi yoki gap tipida bo'lsa ham, lekin ular nutq birligi bo'lgan bu birliklardan tamoman farqlanadi va lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi.

So‘zlarga xos bo‘lgan juda ko‘p xususiyatlар frazeologizmlarga ham xosdir. Frazeologizmlar ham, xuddi so‘zlar kabi, shakl va ma’no butunligiga ega. Lingvokulturologiya va frazeologiya tilshunoslikning ikkita alohida bo’limi bo’lishiga qaramasdan bir biri bilan uzviy bog‘langan fanlar hisoblanadi.

O‘zbek va nemis tillari frazeologik birlklarga boy tillardan hisoblanadi. Ushbu tillardagi frazeologizmlarni o‘rganish jarayonida o‘zbek va nemis xalqi tarixi va urfatlariga doir juda ko‘p qimmatli axborotlarga ega bo‘lish mumkin. Xalqlarning dunyoqarashi, chuqur mantiqiy fikrlari, his-tuyg‘ulari, hayot tarzi, yashab turgan muhiti, tabiiy shart-sharoiti va to‘plagan hayotiy tajribalari ularning tilida o‘z ifodasini topgan. Xalq badiiy tafakkurining mahsuli bo‘lmish iboralar kundalik so‘zlashuvda, har yerda, har qanday sharoitda ham muloqot ta’sirini kuchaytiruvchi vosita sifatida keng qo‘llanib kelinmoqda. Lo‘nda, muayyan qolipga tushgan, ta’sirli iboralar xalq badiiy tafakkurining boshqa na’munalaridan uzoqroq umr kechirib kelmoqda. O‘zbek va nemis tillaridagi turg’un birikmalarning lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilish dolzarb mavzulardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Til va madaniyatning bog‘liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog‘liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardangina boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlari xizmat qiladi. O‘zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo‘nalishda qator ishlar olib borilmoqda.

Xususan, o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish”, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab”, N.Sayidrahimovaning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, “Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovaning “Matnning atropotsentrik tadqiqi” mavzusidagi monografiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvokulturologiya fanining mohiyati, predmeti va obyekti masalalari o‘rganilgan.

Hozirgi vaqtida lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida ham eng rivojlangan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada bir qancha o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e’tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma hisoblanadi. Shuningdek, lingvokulturologik yondoshuvdagi tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida ham oxirgi o‘n yilliklarda paydo bo‘la boshladi. Masalan, Z.I.Saliyevaning nomzodlik ishi o‘zbek va fransuz tillaridagi sentensiya, ya’ni axloqiy-ta’limiy harakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlariga bag‘ishlangan⁴³. R.S.Ibragimovaning nomzodlik dissertatsiyasida esa ayol konseptining o‘zbek va fransuz tillarida ifodalananish yo‘llari tadqiq etilgan⁴⁴.

Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin⁴⁵. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi urchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar

⁴³ Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально – культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 2010. – С. 25

⁴⁴ Гумбольдт В.фон. Язык и философия культуры. – М., 1985. – С. 33.

⁴⁵ Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent,2012. - № 5. – В. 3 - 16

haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsada, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbek xalqi purma’no so‘zga, o‘git-u naqlarga boy xalq sanaladi. Ajdodlarimiz azaldan o‘zining hayotiy muammolarini – mehnat mashaqqati, g‘amanduhi, rohat-farog‘ati, muvaffaqiyat va mag‘lubiyati, rasm-rusumlari – hammahammasini maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda ko‘zgudagidek aks ettirib keladi. Xalqning til boyligi – uning bo‘yoq dor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlaming boyligi bilan ham o‘lchanadi. O‘zbek tili – ona tilimizning juda boy, ma’nodor, jozibali va rang-barangligi Navoiy zamonidayoq isbotlangan. Maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat’iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilma-xilligi, iboralarning turg‘unligi, shaklliy barqarorlik ustunlik qiladi. Maqollar ham xalqning milliyligi, urf-odatlarini, asriy tajribalar natijasida chiqargan xulosalarini o‘zida kas ettiruvchi xalq og‘zaki ijodi namunasi sanaladi. Maqollarda ma’lum ma’noda millatning madaniyati aks etadi. Shu sababli o‘zbek xalq maqollarini ham lingvokulturologiyaning obyekti sifatida tahlilga tortishga harakat qilamiz.

Frazeologik birliklaring tilda qanchalar ko‘p bo‘lishi, o’sha tilning imkoniyatlari shunchalik kengliginiko’rsatadi. Frazeologizmlar ya’ni maqol, matal, ideomalar xalqning o‘tmishi, tarixi, an’analari, urf-odati va madaniyatini o‘zida yaqqol aks ettiradi. Shu bilan birga frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy xususiyatlari mujassam bo‘ladi. Ular chuqur va boy ma’noga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, nutqqa alohida ko‘rk va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi.

O‘zbek tilidagi maqol va iboralarning lingvokulturologik tahlili

Bu borada lingvokulturologik obyekt bo‘la oladigan maqollarni quyidagicha tahlil qilamiz:

Bir mayizni qirq kishi bo‘lib yeydi. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan eng oliy xususiyatlardan biri ahillik, inoqlikdir. Bu bizga ajdodlarimizdan singgan fazilatdir. Bir mayizni qirqa bo‘lib yeyishlik, o‘zi yemay o‘zgaga ilinishlik xalqimizga xos bo‘lgan insoniy fazilatlarga ishora qiladi. Mazkur maqolada 40 kishi umumiylar ma’noda qo’llangan bo‘lib, aslida 40 kishi bo‘lmasada ko‘pchilik degan ma’noni anglatadi.

Ona yurting – oltin beshiging. O‘zbek tilida beshik so‘zi muqaddas. Chunki, yangi tug‘ilgan chaqalojni turli odat-u irimlari bilan beshikka yotqizishadi. Tom ma’noda aytganda, beshik deganda o‘zbeklar Vatanini tushunadi. Bu so‘z milliy ruh bilan sug‘orilgan bo‘lib, lingvomadaniy birlik hisoblanadi. O‘zbek millatida yurt onaga qiyoslansa, nemis xalqida vatan otaga qiyoslanadi. O‘zbek tilida ona yurtim iborasi qo’llansa, nemis tilida Vaterland ya’ni ota vatan shaklida qo‘llanadi. Mazkur iboralarda on ava ota gender leksemalari qo‘llangan.

Yaxshi gapga ham, yomon gapga ham farishta omin deydi. Davlatimizning rasmiy dini sanalgan Islomda kishi har biri daqiqada yaxshi niyatda bo‘lishi kerakligi uqtiriladi. Sababi bizning har bir aytgan so‘zimizga farishtalar omin deyishi mumkinligida. Agar beixtiyor sovuq nafas (niyat) qilib qo‘ysag-u, unga farishta omin deb qo‘ysa, holimizga voy. Shuning uchun o‘tayotgan har bir daqiqamizda Ollohgaga shukr qilib, yaxshi narsalarni ko‘zlab yashashimiz zarur. Bu qarash har birimizni qanoatli bo‘lishga undaydi. Bu maqolda ana shu diniy qarash orqali xalqimizning milliy o‘ziga xosligi ifodalangan.

Yaxshi mehmon osh ustida. Azal-azaldan mavjud bu maqol zamirida ham o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan holat aks ettirilgan. Oila dasturxon atrofida to‘planib o‘tirgan paytda kimdir

kelib qolsa, unga qarata “*Yaxshi mehmon osh ustida*”, “*Yaxshi kishi osh ustida keladi*”, “*Qaynonangiz sizni juda sevar ekan*” kabi maqollarni qo’llaymiz. Bunday holat o’sha insonning yaxshi fazilatli ekanligidan dalolat beradi. Bu ham, albatta, xalqimizga xos bo’lgan madaniyatning ifodasidir. Ya’ni o’zbek madaniyati o’zbek tilida o’z aksini topgan. ***Yon qo’shnim – jon qo’shnim.*** O’zbeklarda qo’shniga azal-azaldan katta e’tibor va hurmat qaralgan. *Bir bolaga yetti mahalla ota-on*a kabi maqollarning ham kelib chiqishi mana shunday hurmat va e’tiborning natijasidir. Hatto, diniy manbalarda ham agar ovqat qilsang, hidi qo’shningnikiga yetib borsa, o’sha ovqatdan qo’shniga ham berish kerak deyilgan. Shundan kelib chiqqan holda, dono xalqimiz “*Yon qo’shning-jon qo’shning*” deb atashgan. Bu maqolda ana shu o’zbekona ruh va man’naviy qadriyat sezilib turadi.

Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga. O’zbek xalqida qariyalarni farishtaga qiyoslashadi. Shuning uchun qarisi bor uyning parisi bor deyishadi. Shu tufayli ham qariyalar qay vaqt kelmasin, ularni hurmatlab to’riga o’tirgizib, oshga tortishgan. Shuning uchun yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga deyishgan. Bu maqolda garchi etalon ishtirot etmagan bo’lsada, lekin o’zbeklarga xos milliylik ruhi sezilib turadi.

Zaifaning tushi chap. Bu maqolda o’zbek xalqining diniy qarashlari aks ettirilgan. Chunki o’zbekona qarashga ko’ra ayol kishining tushi doimo chapdan keladi. Bu maqolda etalon yo’q bo’lsada, xalqimizga xos qarash sezilib turadi.

Non ham non, ushog’i ham non. Dunyoda o’zbekchaliik nonga yuksak hurmatda bo’lgan xalq bo’lmasa kerak. Ulug’larimiz ham “*Nonday aziz bo’lgin*” deb duo qilishadi. Farzandlarga yoshligidan “*Nonni ushatmay ye*”, “*Nonni bosma*”, “*Nonni ko’zingga sur*” deya tarbiya berishadi. Bularning barchasi xalqimizda nonga bo’lgan e’tibor, o’zbekona qarashdan darak beradi. Chunki, bu qarashga ko’ra, nonni qadrlamaslik, unga nisbatan isrofarchilik yo’qchilikka olib keladi, hatto bu gunoh ish sanaladi.

Bosh omon bo’lsa do’ppi topilar. Insonning yaxshi, yorug’ kunlarga, sog’lik, tinchlik-xotirjamlik bo’lsa, yaxshi, yorug’ kunlarga umidi, o’zini taqdir ixtiyoriga topshirib tavakkal qilish ma’nolari ifodalangan. Bosh kiyim sifatida bu yerda qalpoq, shapka, shlyapa so’zleri emas, do’ppi so’zi keltirilgan. Ma’lumki, do’ppi o’zbek xalqining milliy bosh kiyimi sanaladi. Shu o’rinda lingvomadaniy birlik sifatida etalon vazifasini bajarib kelgan.

Do’ppining ichida odam bor. Bu maqol mazmunan “*Devorning ham qulog’i bor*” maqoliga o’zaro sinonim hisoblanadi. Bu maqolning tahliliga to’xtalsak, har bir narsani har joyda aytmaslik kerakligini uqtiradi, kishini ogohlikka xushyorlikka chorlaydi. Unda ham etalon sifatida do’ppi so’zi olingan.

Elakka chiqqan xotinning ellik og’iz gapi bor. Bu maqolni eshitgan har bir inson xayoliga g’iybatchi ayol haqida fikr yuritilgan degan o’y keladi. Lekin bu maqol bunday ayollar haqida emas. Aslida bu maqolda xalqimizga xos bo’lgan o’zga millatlarda takrorlanmas xususiyat aks ettirilgan. Negaki, bir insonni ko’rgan o’zbek ayollarini o’sha insonning oilasi, farzandlarini, hattoki, qarindosh urug’larining ham hol-ahvolini ham so’raydi. Bu diniy manbalarimizda ham qayd etilgan. Chunki, musumlon kishining boshqa bir muslimon kishidan ahvol so’rashi uning islomdagagi farzi sanaladi. O’zbek ayollarining bu xususiyatlaridan kelib chiqqan “*Elakka chiqqan xotinning ellik og’iz gapi bor*” ma maqolida ijobjiy xislat ifodalangan.

Er-xotinning urushi – doka ro’molning qurishi. Oila muqaddas dargoh sifatida e’zozlanadi. Lekin mana shu muqaddas dargohda ham ba’zan ahamiyatga molik bo’lmagan janjallar uchrab turishi hech birimizga sir emas. Ma’lumki, janjallarning aksariyat qismi uzoq muddatli arza bilan yakun topadi. Ammo oiladagi er-xotin urushi kamdan-kam hollarda araz bilan yakunlanadi. Biroq bu arazning vaqt ma’lum bir muddat ya’ni doka ro’mol qurishiga ketgan vaqt kabi qisqadir. Shuning uchun xalqimizda “*Er-xotinning*

urushi – doka ro‘mol qurilishi” kabi maqollar yuzaga kelgan. Ushbu maqolda etalon sifatida olingan doka ro‘mol ham milliy kiyimlarimizning tarkibiy qismi bo‘lgan bosh kiyim hisoblanadi. O‘zbek ayollari bu bosh kiyimdan turli xil marosimlarda foydalanishadi. **Hashar qildim - uy qurdim, bunda ko‘p hikmat ko‘rdim.** Hashar o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan udum sanaldi. Ya’ni uy ko‘tarmoqchi (qurmoqchi) bo‘lgan yoki mamalakat obodonchiligi yo‘lida qilinadigan umumxalq mehanatidir. Bizga ma’lumki, hasharga do‘sstu birodarlar, yaqin qarindoshlar yordamga keladi. Hasharda birdamlik, ahillik kabi samimi tuyg‘ular o‘z aksini topadi. Shuning uchun, hashar qilgan inson ko‘p hikmatlarning guvohi bo‘ladi. Ya’ni do‘sstlarining sadoqatini, mehribonligini ko‘radi. Bu maqolda etalon sifatida olingan hashar so‘zi lingvomadaniy birlik sanaladi.

Yelkasi chopon ko‘rmagan. Ko‘chma ma’noda kambag‘al, izzat-hurmat ko‘rmagan, quandalik bo‘lмаган, mehr-oqibat bilmagan mazmunini tashiydi. Iborada tagi-zoti past, ko‘rmaganning ko‘rgani qursin degan takabburona naql mazmuni ham bor. Cho‘pon esa xalqimizning milliy kiyimi sanaladi.

Ishtahasi karnay. O‘zbek xalqida ko‘p vaqtlardan beri qo’llanib kelinayotgan bu ibora ishtahasi zo‘r degan ma’noni bildiradi.

Nemis tilidagi maqol va iboralar ning lingvokulturologik tahlili

Har narsaning tarixi bo‘lgani kabi maqol va matallar ham o‘z kelib chiqish tarixiga ega. Nemis tilidagi maqolning kelib chiqish tarixini nemis olimi F.Zayler chuqr o‘rgangan. U o‘zining keng hajmdagi asari bo‘lmish “Nemicha maqol ta’limoti”ni frazeologik muommolariga bag‘ishlaydi. U maqol so‘zining kelib chiqishi haqida shunday yozadi: “Maqol o‘rta nemis tilida “Sprichwort” bo‘lgan va u “men gapiraman” ma’nosini anglatgan. Har bir maqol haqiqiy xalq so‘zi bo‘lishi kerak. Ko‘pgina maqollar yagona makonda, xalq qatlamlarida xalqchil bo‘lib keyinchalik tez-tez shevalarda ko‘rina boshlaydi”.⁴⁶

Nemis tilidagi maqollarning kelib chiqishida asosan qadimgi german mifologiyasi o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Bundan tashqari xalqning din haqidagi qarashlari, ularning dostonlari afsonalari asosida ham maqollar shakillana borgan. Xalq yaratgan maqollar albatta qandaydir vazifani bajarishga xizmat qiladi. Ya’ni maqollarda xalqning orzu-umidlari, armonlari, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi hislatlar mujassamlashgan bo‘ladi. Ana shunday ijobjiy xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati katta bo‘ladi. Shuning uchun maqollar kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongini o‘stirishda, ularni to‘g’ri, rostgo‘y, mehnatsevar, mard, oliyjanob, matonatli bo‘lishga o‘rgatadi, kishida eng yaxshi insoniy fazilatlarni shakillantiradi.

Nemis madaniyatiga xos ranglar bilan bog‘liq iboralar

Nemis madaniyatida qizil va qora ranglar azaldan salbiy ma’noga ega. Bu ranglar o’lim, motam va umidsizlikni ifodalaydi. Bu ranglar Yevropada salbiy qabul qilingan.

Schwarzer Tag. (So‘zma so‘z **qora kun**) Bu ibora muvaffaqiyatsiz kun degan ma’noda ishlatalidi.

Ein schwarzer Freitag (So‘zma so‘z **qora juma**) omadsiz, baxtsiz juma degan ma’noni anglatadi. Bu ibora zamirida sodir bo‘lgan haqiqiy voqeа yotadi 1869-yil 24-sentyabr juma kuni ko‘plab nemis sarmoyodorlari bankrot bo‘lishgan va mol-mulkidan ajralishgan. Shu voqeadan keyin ushbu ibora paydo bo‘lgan.

Rote Zahlen. (So‘zma so‘z **qizil raqamlar**) Ushbu ibora ham salbiy ma’noni anglatadi. U yo‘qotishlarni ko‘rsatuvchi ma’lumotlarni beradi ya’ni qarzlar, defitsit kabi.

⁴⁶ Imyaminova Sh.S. Nemicha-o‘zbekcha maqol va matallar lug’ati. Toshkent, MUMTOZ SO‘Z, 2013. 5b.

Schwarze Zahlen. (So‘zma so‘z: *qora raqamlar*) Bu iborada qora so‘zi o‘zining salbiyligini yo‘qotadi va ijobiy ma’noda ishlatiladi. Ibora daromadni ko’rsatuvchi ma’lumotlar, korxonaning daromadi haqida gapirilganda ishlatiladi.

Schwarze Kleidung. (So‘zma so‘z: *qora kiyim*) Bu ibora nemis xalqida motam kunlari kiyiladigan libosni bildiradi bu ibora ham nemis xalqi madanyatini ko‘rsatadi.

Grünes Herz Deutschlands. (So‘zma so‘z: *Germanyaning yashil yuragi*) Bu ibora Germanyadagi Tuyringen federal yeriga nisbatan ishlatiladi, chunki bu o‘lkada juda katta o‘rmon bor.

Grüne Weihnachten. (So‘zma so‘z: *yashil rajdestvo bayrami*) Bu ibora qorsiz *rajdestvo bayramini anglatadi*. Agar *rajdestvo kuni qor yog‘masa ushbu ibora qo‘llanadi*.

Weiße Ostern. (So‘zma so‘z: *Oq pasxa bayrami*) Pasxa xristianlarning diniy bayramlaridan biri bo‘lib bahor faslida nishollanadi. Agar shu kuni qor yog‘sa nemis xalqida *wieße Ostern iborasi qo‘llaniladi*.

Wer den Brei gekocht hat, der mag ihn auch essen: (So‘zma so‘z: *Kimki bo‘tqani pishirsa, uni yeyishni ham yoqtirishi kerak*) o‘zing pishirgan oshni aylanib ham, o‘rgilib ham o‘zing ich. Nemis xalqiga xos bo‘lgan ushbu maqolda agar qandaydir yomon ish qilib qo‘yilsa shu qilgan ishiga odamning o‘zi javob berishi kerakligi yoritilgan.

Ein Mann- ein Wort. (So‘zma so‘z: *Bir kishi-bir so‘z*) Ushbu maqolda erkakning so‘zi bir bo‘lishi haqidagi fikr yoritilgan. Bu maqolning o‘zbek tilidagi muqobil varianti, *arslon izidan qaytmas, yigit so‘zidan*.

Ein Unglück kommt selten allein – (So‘zma so‘z: *baxtsizlik kamdan kam yolg’iz keladi*) nemis xalqidagi ushbu maqol baxtsizlik yolg’iz kelmsligini ta’kidlaydi. Baxtsizlik ketma-ket keladi.

Gesundheit ist das höchste Gut. Sog‘lik eng yaxshi boylik. Nemis xalqida so‘g‘lik azal-azaldan qadirlanadi, shu sababli ham ushbu maqol kelib chiqqan.

Ungeladene Gäste gehören nicht zum Feste. (So‘zma so‘z: *taklif qilinmagan mehmon bayramga tegishli emas*) Chaqirilmagan qo‘noq, yo‘nilmagan tayoq

Wie Sand am Meer. (So‘zma so‘z: *dengizdagi qumdek*) (Sanoqsiz) Bu ibora nemis xalqida 1500 yildan beri mavjud. Quyidagi ibora azal-azaldan narsaning miqdorining ko‘pligini ifodalashda qo‘llanadi.

Schwein gehabt. (So‘zma so‘z: *cho‘chqaga ega bo‘lmoq*) Nemis xalqi orasida cho‘chqa bilan bog‘liq iboralarni juda ko‘p uchratish mumkin. Bu ibora omadi kulmoq, baxti kelmoq ma’nosida qo‘llanadi. Bu ibora ko‘pincha qimor o‘yinlari vaqtida qo‘llanib, so‘zlashuv nutqida ko‘p uchraydi.

Ein Gefühl wie Weihnachten (Ostern). (Sich freuen wie ein Kind zu Weihnachten). So‘zma so‘z: *rajdestvo bayramidagi his*. Bu ibora rajdestvo va pasxa bayrami nemis xalqi uchun juda muhim ekanligini ko‘rsatadi. Bu bayramlar Iso payg‘ambarning yakshanba kuni tug‘ilganligi bilan bog‘liq. Ular qarashicha bu bayramlar ham yakshanba kuniga to‘g‘ri kelishi kerak deb hisoblashadi va bayramni o‘zgacha hursandchilik bilan nishollahshadi.

Stark wie eine Eiche. (So‘zma so‘z: *eman daraxtidek kuchli*). Nemis xalqida kuchli odamlar eman daraxtiga qiyoslanadi. Bu ibora o‘z tarixiga ega. Qadimgi german qabilalarida qabila oqsaqollari eman daraxtiga o‘xshatilgan, chunki qabila oqsaqolligi uchun faqatgina kuchli, sog‘lom insonlar saylangan. Bundan tashqari germanlarning bir nechta shahar bayroqlarida eman daraxti ta’sviri bo‘lgan. Eman kuch va dovyuraklik ramzi bo‘lgan.

Wie ein Bär gesund sein. (So‘zma so‘z: *ayiqday sog‘lom bo‘lish*) Bu iborada ayiq kuchi va sog‘ligi ta’svirlangan. Ayiq kuchli hayvon shuning uchun ham u kuch-quvvat va so‘liq ramzi. Ayiq ta’sviri Berlin shahri ramzi va Elba daryosining sharqiy qismidagi 12 ta shaharning ramzi ayiqdir.

Leb woh, iss Kohl (So‘zma so‘z: *Karam ye, yaxshi yasha*). Nemis xalqida yangi yil kelganda karam yesang, yil bo‘yi kasal bo‘lmasdan sog‘lom bo‘lasan degan gap bor va xalq bunga juda ishonadi. Bu ham nemis xalqigagina xos bo‘lgan madaniy xususiyatdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zbek va nemis tillari frazeologik birliklarga boy tillardan hisoblanadi. Ushbu tillardagi frazeologizmlarni o‘rganish jarayonida o‘zbek va nemis xalqi tarixi va urf-odatlariga doir juda ko‘p qimmatli axborotlarga ega bo‘lish mumkin. Xalqlarning dunyoqarashi, chuqur mantiqiy fikrlari, his-tuyg‘ulari, hayot tarzi, yashab turgan muhiti, tabiiy shart-sharoiti va to‘plagan hayotiy tajribalari ularning tilida o‘z ifodasini topgan. Xalq badiiy tafakkurining mahsuli bo‘lmish iboralar kundalik so‘zlashuvda, har yerda, har qanday sharoitda ham muloqot ta’sirini kuchaytiruvchi vosita sifatida keng qo‘llanib kelinmoqda. Lo‘nda, muayyan qolipga tushgan, ta’sirli iboralar xalq badiiy tafakkurining boshqa na’munalaridan uzoqroq umr kechirib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Agricola E. Wörter und Wendungen. Wörterbuch zum deutschen Sprachgebrauch, Mannheim, Leipzig, Wien, Zürich: Dudenverlag, 1992
2. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin: Erich Schmidt Verlag: 2003
3. Eckert R. Aktuelle Probleme der Phraseologie. Karl-Marx- Universität, Leipzig, 1974.
4. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Aufl. Leipzig: Bibliographisches Institut, 1982.
5. Маслова В.А Лингвакультурология. Учеб.пособие для студентов вузов. М.: Академия, 2001.
6. Телия В.Н Русская фразеология. Семантический, парагматический и лингвакультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, Издательство РУДН, 1996.
7. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс, 2005.